



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 153 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises.....	60
Matchanov Umirzak Seytjanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	



Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	
Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	



TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Absamatov Anvar Ergashovich

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

E-mail: e.absamatov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish hamda uni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklarining faoliyatini jadallashtirish yo‘llari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorida raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion bank mahsulotlarini rivojlantirish istiqbolidagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, raqamli transformatsiya, innovatsion bank, bank mahsulotlari, boshqaruv tuzilmasi, bank strategiyasi, strategiyaning tarkibiy elementlari, strategik ustuvorliklar, marja, kredit, depozit, foizli, foizsiz daromad va xarajatlar.

Abstract: This article provides insights into ways to accelerate the activities of commercial banks in the national economy through the development and implementation of innovative banking products during the digital transformation process in the Republic of Uzbekistan. In particular, during the consistent reform of the financial sector, a number of measures are being implemented, resulting in the creation of the necessary legal conditions to maintain advanced banking practices and strengthen competition in this sector. The article also discusses existing challenges in the development prospects of innovative banking products and presents the author’s approaches and proposals for their resolution.

Key words: commercial bank, digital transformation, innovative bank, banking products, management structure, banking strategy, structural elements of strategy, strategic priorities, margin, loan, deposit, interest, interest-free income and expenses.

Аннотация: В данной статье приводятся отзывы о способах ускорения деятельности коммерческих банков в национальной экономике посредством разработки и освоения инновационных банковских продуктов в процессе цифровой трансформации в Республике Узбекистан. В частности, в ходе последовательного реформирования финансового сектора осуществляется ряд мер, и, как следствие, создаются необходимые правовые условия для поддержания передового банковского бизнеса и укрепления конкурентной среды в этом секторе. Также в стране представлены существующие проблемы в перспективах развития инновационных банковских продуктов в процессе цифровой трансформации, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческий банк, цифровая трансформация, инновационный банк, банковские продукты, структура управления, банковская стратегия, структурные элементы стратегии, стратегические приоритеты, маржа, кредит, депозит, проценты, беспроцентные доходы и расходы.

KIRISH

Jahon amaliyotiga ko‘ra, raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion bank mahsulotlarini muammoli holatlar uchun moliyaviy yechimlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, jahon bank tizimi mobil texnologiyalar, raqamli banklar, biometrik texnologiyalar, blokcheyn texnologiyasi va sun‘iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. Natijada, mobil texnologiyalar yordamida bank va mijozlar jismoniy aloqasiz, bank binosiga bormasdan pul mablag‘larini boshqarishi, masofaviy bank xizmatlarining keskin tarzda rivojlanishi natijasida filial va shahobchalar ochmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi raqamli banklarning ko‘payishi, xavfsizlik darajasi kuchaytirilgan biometrik texnologiyalarning rivojlanishi, shaffofligi kuchli bo‘lgan blokcheyn texnologiyasining ommalashuvi hamda sun‘iy intellekt yordamida ma‘lumotlarni avtomatik tahlil qilish bank operatsiyalarini amalga oshirishda vaqtni tejashga xizmat qilmoqda. Bu esa banklar uchun masofaviy bank



xizmatlarini innovatsion va texnologik jihatdan rivojlantirish borasida kompleks ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida "...kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan [1].

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda, ularning turlari kengaytirilmoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib bormoqda. Aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlari joriy etildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish uchun imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish, moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda moliyaviy xizmatlarni yetkazib berish va iste'mol qilish borasida, shuningdek, texnologik rivojlanish natijasida biznes, bank va moliya tizimi muhitida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bank xizmatlari bozorida ham internet va mobil texnologiyalarni qo'llash hamda ulardan foydalanish banklarning xizmat ko'rsatish tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ko'p sonli elektron kanallar orqali elektron bank xizmatlarini rivojlantirish mijozlarga qo'shimcha qulayliklar taqdim etish imkonini berdi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bank tizimida ko'plab moliyaviy xizmatlarning ortib borishi masofadan bank xizmati ko'rsatish ahamiyatini yanada oshirdi. Natijada, butun dunyo bo'ylab yirik banklar tomonidan bank xizmatlarining turli xil variantlari onlayn rejimda taqdim etilmoqda.

Xususan, A.I. Jukov bank xizmatlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Tijorat banklari xizmatlari — bank foydasiga ma'lum bir haq olish evaziga, mijozning talabiga binoan bank operatsiyalarini bajarish" [2].

Bugungi kun bank sohasining rivojlanish tendensiyasi xizmatlarni elektron tarzda yuritishga o'tishdir. Bu borada ilk fundamental tadqiqot Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshida 1974-yili tashkil etilgan Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan. Mazkur qo'mita tomonidan elektron bank xizmatlari bo'yicha ishchi guruh tashkil qilingan. Bank nazoratchilari uchun xalqaro elektron bank ishi masalalari "Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors" (2000-y.) ma'ruzalari ushbu guruh faoliyatining natijasiga aylangan [3]. Mazkur muammoning turli jihatlariga Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va O'nlik guruhining (G10) tadqiqotlarida ham sezilarli darajada e'tibor qaratilgan [4].

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) bank faoliyatiga joriy etish va ularning iqtisodiyotda qo'llanilishini kengaytirish mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirda iqtisodiyotda AKTdan foydalanishni kamaytirish aholi jon boshiga hisoblangan daromad va samaradorlikka salbiy ta'sir qiladi [5].

Shu o'rinda, "bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish" yoki "masofaviy bank xizmatlari" tushunchalarining mohiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ta'siri asosiy omil bo'lmoqda. Dastlab, 1970-yillarda banklar aloqa kanallari sifatida bankomatlarini joriy qilgan, keyinroq 1980-yillarda telefon aloqasi, 1990-yillarda internet-banking, 1990–2000-yillar mobaynida mobil-banking xizmati bilan bank texnologiyalari o'zgarib borgan [6]. 2000-yildan turli xildagi smartfonlar vujudga keldi, ular orqali bankka ulanadigan kanallar rivojlana boshladi. Masofaviy bank xizmatlarining turlari ortib bordi, ulardan millionlab bank mijozlari foydalanishni boshladi. Hozirgi kunda ham bank xizmatlari innovatsion bank texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish evaziga takomillashib bormoqda.

Rus iqtisodchi olimi V.K. Spilnichenkoning fikricha, masofaviy bank xizmatlari — informatsion xizmatlarning majmuasi va mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni bankka tashrif buyurmasdan bajarishdir. Masofaviy bank xizmatlari telekommunikatsiya tizimi orqali mijozning bank ma'lumotlar bazasiga murojaati bilan izohlanadi [7].

Bizningcha, innovatsion bank mahsulotlari — bu o'z mijozlarining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun banklar tomonidan taqdim etiladigan yangi va takomillashtirilgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardir. Ushbu mahsulotlar, odatda, bank xizmatlarini yanada qulay, samarali va mijozlar uchun foydali qilish uchun yangi texnologiyalar va usullar yordamida ishlab chiqiladi. Innovatsion bank mahsulotlariga misol sifatida mobil hisobni boshqarish ilovalari, raqamli hamyonlar, onlayn kreditlar va boshqalarni keltirish mumkin.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilindi. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda innovatsion bank mahsulotlarini ishlab chiqish bank sektorini raqamli transformatsiya qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi va salmoqli iqtisodiy ahamiyatga ega. Bank mahsulotlaridagi innovatsiyalar iqtisodiy nuqtai nazardan ahamiyatli bo'lishining bir necha sabablari mavjud:

Birinchidan, innovatsion bank mahsulotlari mijozlar uchun xizmatlarning qulayligini oshirishga imkon beradi, bu esa mijozlarning sodiqligini mustahkamlashga va yangilarini jalb qilishga olib keladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirishdan foydalanish banklarga operatsion xarajatlarni kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, innovatsion mahsulotlar banklarga yangi mijozlarni jalb qilishda va mavjudlarini saqlab qolishda yordam beradi, bu esa daromad va bozor ulushining oshishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, innovatsion mahsulotlar daromad olish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin. Masalan, yangi xizmatlardan foydalanish yoki qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirish orqali komissiya to'lovlari orqali daromadlar ko'paytiriladi.

Beshinchidan, bank sektoridagi innovatsiyalar raqobatni rag'batlantiradi, bu esa xizmatlar sifatining yaxshilanishiga, mijozlar uchun xizmatlar narxining pasayishiga va sohaga investitsiyalar oqimini kuchaytirishga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, innovatsion bank mahsulotlarini ishlab chiqish bank sektorini muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya qilishning asosiy elementi bo'lib, ushbu sohadagi subyektlarga iqtisodiy foyda olish imkonini taqdim etadi.

Bu borada "Hamkorbank" ATB tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlar oltita yo'nalishni qamrab oladi (1-rasm):

Jamg'arma (aholi pul mablag'larini bank depositlariga jalb qilish);

Chakana kredit (ipoteka, avtokredit, iste'mol krediti, overdraft va boshqalar);

Xorijiy valyuta operatsiyalari (konversiya, inkassoga qabul qilish, transchegaraviy o'tkazmalar);

Bank kartalari (muomalaga chiqarish, kartadan kartaga pul o'tkazmalari, xorijiy bank kartalari ekvayringi va boshqalar);

Interaktiv xizmatlar (internet-banking, SMS-banking, QR kod orqali operatsiyalarni amalga oshirish va boshqalar);

Pul o'tkazmalari (xorijiy valyutadagi pul o'tkazmalari, ichki bank o'tkazmalari, SWIFT tizimi orqali to'lovlar, GPI global to'lov tizimi va boshqalar).



1-rasm. "Hamkorbank" ATB tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etilayotgan xizmatlarning guruhlanishi¹


1 Muallif ishlanmasi



Shuningdek, bugungi kunda kommunikatsiya sohasida sifat standartlarining mavjud emasligi, kanallarning barqaror ishlashini ta'minlash, call-markaz xodimlarining o'z darajasida maslahat bera olmasligi bilan bir qatorda, bank tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar reklamasining yetarlicha olib borilmasligi, front ofislar (ayniqsa, tumanlarda navbatlarning kattaligi) faoliyatini tashkil etishda call-markazlar ta'sir darajasining pastligi kabi muammolar bank faoliyati samaradorligini pasaytiruvchi va mijozlar ishonchini kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Telegram-botlar tijorat banklari tomonidan taklif etilmoqda. Ammo mazkur kanal bevosita bank xodimi bilan onlayn tarzda muloqot qilish va tegishli ma'lumotlarni olish imkoniyatini bermaydi.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tijorat banklarining onlayn tarzda ishlovchi axborot-kommunikatsiya tizimlarida muayyan muammolar mavjud. Xususan, tijorat banklarining 55 foizida onlayn chatlar mavjud bo'lib, ularning faqat 27 foizi orqali mijozlar uchun zarur bo'lgan to'laqonli maslahat olish imkoni mavjud. Bu borada chat orqali muloqotda teskari aloqa tizimining yo'qligi yoki sifatining pastligi, mijozni qiziqtirayotgan masalalar bo'yicha to'liq ma'lumot olish yoki taqdim etish imkoniyatlarining cheklanganligi onlayn chatlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Tijorat banklarida onlayn tarzda ishlovchi kommunikatsion aloqa kanallarining amaldagi holati²

Kiberfiribgarlik va kiber hujumlar chakana bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda bank faoliyati xavfsizligi darajasini oshirishdagi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Ilmiy tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, mazkur masalaga batafsil to'xtalib o'tmaymiz, chunki bunday muammolarning aksariyat qismi tizimli xususiyatga ega bo'lib, alohida tadqiqotlarni talab etadi.


Nafaqat ofislar orqali, balki mijozlar bilan masofaviy muloqot (internet, mobil banking) jarayonida ham ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini va hajmi ortib bormoqda. Transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari ekotizimni yaratish, boshqa kompaniyalar bilan sheriklikni rivojlantirish, xorijiy brend ostida bank xizmatlarini ko'rsatish va tubdan yangi biznes yo'nalishlarini shakllantirishdan iborat.

Umuman olganda, tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlarni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin: ma'lumotlarni uzatish kanallari va boshqa xususiyatlariga ko'ra 4 guruhga

² Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.



bo'linadi. "Mijoz-bank" dasturi, mobil-banking, tashqi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalari hamda internet-mijoz (thin client) tizimlari o'z xususiyatlariga ko'ra muallif tomonidan tizimlashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlarning tasnifi³

Ushbu innovatsion bank xizmat turlarini amaliyotga joriy qilishda bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda innovatsion bank xizmatlarining samaradorligini oshirish yo'li bilan bankning operatsion xarajatlarining barqaror darajasini ta'minlash lozim. Natijada, innovatsion bank xizmatlarining diversifikatsiyalashuv darajasi oshadi, ya'ni bank mijozlari uchun qulay bo'lgan innovatsion bank xizmatlaridan foydalanishda tanlash imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, O'zbekiston tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatish rivojlangan davlatlar banklari darajasidagidek yuqori rivojlanmagan, normativ-huquqiy jihatdan kuchli ta'minlanmagan. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risidagi nizomda ham bugungi innovatsion bank xizmatlari imkoniyatlarining huquqiy jihatlari aks ettirilmagan. Boshqa tomondan, ayrim tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar bank veb-saytining interaktiv xizmatlar bo'limiga joylashtirilmagan. Bu holat Markaziy bank tomonidan mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning ko'pligidan dalolat beradi. Bu esa kelgusida bank tizimini yanada rivojlantirish uchun raqamli bank sohasidagi innovatsiyalarni joriy etish va innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirishni talab etadi.

Shuningdek, innovatsion bank xizmat turlarini amaliyotga joriy qilishda mamlakatning iqtisodiy va texnologik taraqqiy topganligiga qarab joriy etish lozim. Ya'ni, maxsus texnologiyalarni banklar yoki mijozlar tomonidan sotib olish bilan bog'liq bo'lgan innovatsion bank xizmat turlari ham ayni damda O'zbekiston bank tizimi uchun maqbul emas. Bundan tashqari, O'zbekistonda internet tezligining haddan tashqari pastligi sababli video-bankingni joriy qilish maqsadga muvofiq emas. Chunki video-banking yuqori internet tezligiga asoslangan holda ishlaydi. Yoki iqtisodiy va texnologik rivojlanmagan mamlakatlarda innovatsion bank xizmatlarining aksariyatini joriy etish qiyin. Birinchidan, aholining kompyuter va shunga o'xshash texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishini

3 Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



ta'minlash mushkul. Ikkinchidan, arzon va bugungi kunda insoniyat uchun ajralmas aloqa vositasi bo'lib qolayotgan smartfonlar orqali taklif etilayotgan innovatsion bank xizmatlari foydalanuvchilarning hozirgi kundagi asosiy tanloviga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 13-may, 2022-yil 10-iyun, 06/22/152/0507-son. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Jukov A.I. *Bankovskaya sistema Rossii*. – M.: Prospekt, 2009. – B. 186.
3. *Electronic Banking Group Initiatives and White Papers*. – Basel Committee for Banking Supervision. – Basel, October 2000. – 27 p.
4. <http://www.bis.org> – sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.
5. Ramayah, T. (2005). Course website usage among distance learning business students: the role of prior experience. *International Journal of Learning*, 11, 1507–1517.
6. Devlin, J.F. (1995). "Technology and innovation in retail banking distribution." *International Journal of Bank Marketing*, Vol. 13, No. 4, pp. 19–25.
7. Spilnichenko V.K. Transformatsiya bankovskix platejnyx sistem v ekonomike Rossii // *Ekonomicheskij jurnal*. 2012. № 2 (26).
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti: *Asosiy yo'nalishlar 2024–2026*. – https://cbu.uz/upload/medialibrary/c4f/gu734oaca4kfkpmlt4yburbgnemmma1q/Asosiy_yunalishlar_2024_2026.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
